

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK TILIGA KIRIB
KELAYOTGAN YANGI SO'ZLARNING TAHLILI<https://doi.org/10.5281/zenodo.15627892>**Rahmatova Madina Shahobiddinovna***Farg'ona davlat universiteti
filologiya fakulteti, o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich 23.85-guruh talabasi***Annotatsiya**

Texnika rivojlanayotgan bir zamonda beixtiyor tilimizga yangi so'zlar - neologizmlar kirib kelmoqda. Asosan, fan-texnika borasida emas, balki umumiy sohalarda, so'zlashuv, san'at, rasmiy yo'nalishlarda ham ko'plab yangi va o'zlashma so'zlarga duch kelamiz. Ushbu maqolada tilimizga globalizatsiya davrida kirib kelayotgan so'zlarning tahlili va qo'llanilishi va yangi kirib kelayotgan baynalmilal so'zlarning o'zbekcha muqobilini qidirish o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar

globalizatsiya, texnologiya, o'zbek tili, so'zlar, atamalar, neologizmlar, terminlar, o'zlashma so'zlar.

Аннотация

В эпоху развития техники в наш язык невольно входят новые слова - неологизмы. В основном не только в науке и технике, но и в общих областях, речи, искусстве и формальных сферах мы столкнемся со многими новыми и приобретенными словами. В данной статье изучаются и анализируются анализ и измерение слов, входящих в наш язык в эпоху глобализации, а также поиск узбекской альтернативы вновь входящим международным словам.

Ключевые слова

глобализация, технологии, узбекский язык, слова, термины, неологизмы, термины, заимствованные слова.

Annotation

At a time when technology is developing, new words - neologisms are involuntarily entering our language. Mainly, not only in science and technology, but also in general fields, speech, art, and formal areas, many new and acquired words. we will face. In this article, the analysis and measurement of the words

entering our language in the era of globalization and the search for the Uzbek alternative of the newly entering international words are studied and analyzed.

Key words

globalization, technology, Uzbek language, words, terms, neologisms, terms, borrowed words.

Globalizatsiya jarayonlari har tomonni qamrab oladigan xarakterga ega bo'lgani uchun uni turli xil ilmlar o'rganaveradi. Shunisi ham e'tiborga loyiqki, bu ilmlarning har qaysisi muammoning o'ziga tegishli qismini o'rganish bilan cheklanmay, shu ilmga tegishli tushunchalar tizimidan ham foydalanadi. Shuning uchun ham hozirga qadar "globallashtirish" tushunchasining hamma tomondan e'tirof qilingan yagona ta'rifi ishlab chiqarilgani yo'q¹²¹. O'zbek tili va nutqida doimo shakllanib turuvchi holat lug'atlar bilan bog'liq. Bunga esa ma'lum narsalar ta'sir qilib turadi. Masalan, shevalar, tashqi omillar va hokazo.

Bugungi kunda jahonda www.ethnologue.com saytida berilgan ma'lumotga ko'ra, 7097 til va sheva bor. Sof tillar 3000 tadan ortiqroq.¹²² Globallashuv ham bugungi kunda har qaysi sohaga, har qaysi yo'nalishga o'z ta'sirini o'tkazmay qolgani yo'q. XX asr boshlarida texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida o'zbek tilida ham yangi so'zlarning o'zlashishi, neologizmlarning kirib kelishi jadallashdi. Shuningdek, bu holat jamiyatning siyosiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy sohalaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

O'zlashma so'zlar bizning tilimizga boshqa tillardan kirib kelgan so'zlar bo'lib, hozirda umumiste'moldagi so'zlarimiz singari foydalanamiz. O'zlashma so'zlar barcha tillardan kirib kelishi mumkin, masalan: ispan, ingliz, rus, arab, turk va boshqalar. Hozirgi kunda o'zlashma so'zga aylangan so'zlarga misol qilib *bar*, *lider*, *film* kabilarni ola olamiz. Ko'pchilik insonlar hech qanday o'zgarishlarsiz va qo'shimchalarsiz o'z holicha olingan o'zlashma so'zlarni yaxshi bilishadi, ammo qanday turdagi o'zlashmalar bo'lmasin insonlar ko'p holatlarda ularning qaysi tildan kirib kelganligini bilmaydi. Masalan: *jilet*, *palto*, *bajole* kabi fransuz tilidan kirib kelgan so'zlardan foydalanishadi, ammo aynan shu tildan kirib kelganligini aniq bilishmaydi. Bu davrda yangi so'zlarning o'zlashishida, avvalo, siyosiy sohaga oid bo'lgan *prezident*, *spiker*, *parlament* kabi so'zlarning kirib kelishi kuchaydi, ayrimlarida ishlatilishi faollashdi. Shuningdek, *kompyuter*, *display*, *fayl*, *monitoring*, *yuzer*, *pleyer*, *peydjer* kabi fan-texnika sohasiga oid so'zlar, iqtisod, savdo-sotiq bilan bog'liq *auditor*, *barter*, *broker* kabi so'zlar, madaniy sohaga oid *xit*, *shou*, *nominatsiya*, *xit-parad* kabi so'zlar, maishiy sohalarda esa *feyshn*, *gamburger*, *xot-dog* kabi so'zlar

¹²¹ To'rayev.V.A. Insoniyatga globallashuv tahdidlari.//Jahon adabiyoti, 2003, noyabr.

¹²² Turobov A. M. Umumiy tilshunoslik // Samarqand – 2020.

o'zlashdi. Yana shuni ayta olamizki, neologizmlarni qo'llash ko'proq yoshlar nutqida mavjud, ya'ni yangi so'zlardan foydalanish hozirgi kunda jadal rivojlanib bormoqda.¹²³ Texnologiyaning tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligi va bizning yurtimizga ham tezlik bilan ommalashib borayotganligi tufayli ularning asl tilidagi terminlari ham o'zbek tiliga o'rnashib bormoqda. Bunday so'zlarni neologizmlar deb ham atay boshladik. Neologizmlar esa tilimizga yangi kirib kelgan va hali keng yoyilmagan so'zlardir. Neologizmlar (yun. neos – yangi, logos – so'z) – jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar.¹²⁴ Neologizmlarning tilda paydo bo'lishi va yo'qolishi uning tilga qabul qilinganligida yoki lug'atlardan joy olganligida namoyon bo'ladi. Agar neologizmlar jamiyat fuqarolari tomonidan qabul qilinib foydalanilayotgan bo'lsa, bunday neologizmlar lingvistika va lug'atshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi. Neologizmlarning paydo bo'lishi tilning rivojlanishida, o'zgarishida o'zining muhim o'rniga ega.¹²⁵

Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi.¹²⁶

Tilda neologizmlarning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. Yangi neologizmlar – boshqa tillarda tilimizga kirib kelgan, ammo hali keng tarqalib ulgurmagani yangi so'zlardir. Bunday neologizmlarga misol qilib *stem, hosting, domen, chellench, heshteg, keshbek, kriminal, konkardans, logistika, dispatcher* kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

2. Tarqalgan neologizmlar – jamiyat tomonidan ishlatila boshlangan, ammo lingvistik jihatdan hali qabul qilinmagan yangi so'zlardir. Masalan: *radar, miting, migrant, urbanizatsiya, plagiat, delegatsiya, balans, unitar, transfer, primyera* kabi so'zlarni misol qilishimiz mumkin.

3. Turg'un neologizmlar – barchaga tanish bo'lgan, hamma foydalanadigan va davomiylikka ega bo'lgan neologizmlardir. Bularga *kompyuter, naushnik, gegemon, sity, statistika, parlament, departament, smartfon, infeksiya, korzinka, turist* kabi so'zlarni aytishimiz mumkin.¹²⁷

Texnik taraqqiyot rivojlanishi bilan bir tilda paydo bo'lgan yangi tushunchalarni anglatuvchi neologizmlar boshqa bir tilda muqobil variantga ega

¹²³ Abjalova M., Geldiyeva, X.N. 2022. "O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2 (147-62.):

¹²⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar?wprov=sfla1>

¹²⁵ Hamidulla Dadaboyev *O'zbek terminalogiyasi*. Toshkent – 2019.

¹²⁶ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000.

¹²⁷ Abjalova M., Geldiyeva, X.N. 2022. "O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2 (147-62.):

bo'lasligi ham mumkin, ammo neologizmlarni tarjima qilib bo'lmasa-da tilimizga quyidagi usullar orqali moslashtiruvchi tarjimalarni qilishimiz mumkin:

1. Transkripsiya
2. Transliteratsiya
3. Kalkalash

Transkripsiyalash – bu metod orqali so'zning orfografik tuzilishini berib bo'lmaydi, faqat fonetik tuzilishi beriladi. O'zbek va ingliz tillari fonetik sistemasining muhim farqiga ko'ra, bunday uzatish ya'ni bu metod orqali bir qancha o'xshashlik va noo'xshashliklarni keltirib chiqaradi. Masalan: *Agency* – *Agentlik* – *Агенство*, *Antique* – *Antik* (*qadimiy narsa*)- *Антиквариат*, *Auditor*- *Auditor-Aydurop*, *Attestation*- *Attestatsiya* *Аттестация*.

Transliteratsiya – tarjima jarayonida bu usuldan foydalanishda so'zning ba'zi tovushlari o'rniga boshqa tovushlar qo'yish yoki tarjima qilinayotgan so'zning ona tilimizdagi mazmunining grafik shaklini berish orqali yasaladi. Masalan: "*Dotatsiya*" - *Dotation* – *Домация* (*tashkilot, korxonalarga davlat tomonidan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo'shimcha to'lov*). "*Diler*" – *Dealer* – *Дилер* (*o'z hisobiga birja yoki savdo vositachiligi bilan shug'ullanuvchi ishbilarmon*).

Kalkalash – asliyatdagi leksik birliklarni tarjima tilidagi leksik birlik bilan almashtirishni ko'zda tutadi va tarjima tilida yangi so'z *O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar va iboralar yasalishiga olib keladi*. Masalan: *superpower* – *сверхдержава* - *hukmron davlat*; *mass culture* – *массовая культура* – *ommiy madaniyat*, *green revolution* – *зеленая революция* – *yashil revolutsiya*. Mazkur usullar neologizmlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarga muayyan darajada yechim bo'la oladi.¹²⁸

Ta'kidlash joizki, tilimizga kirib kelayotgan chet so'zlarni qo'llash jarayonida ularni to'g'ri va o'rinli holda ishlatish, tarjima qilinganida umuman mos kelaydigan boshqa atama topilmagan taqdirdagina og'zaki va yozma tilda qo'llash to'g'ri bo'ladi. Bugungi kunda ingliz tili xalqaro til sifatida o'z mavqeyini tobora mustahkamlamoqda va ilmiy tadqiqot tiliga aylanmoqda. Globallashuv hayotida ham asosan ingliz tili asosiy o'rinni egallagan. Shu tufayli ham ko'plab manbalarda inglizcha so'zlar ommalashib kelmoqda. Faqatgina biz ularni qo'llash o'rnida faqatgina mos leksika topilmagan taqdirda o'zlashtirishimiz mumkin bo'ladi. Kundan kunga fan-texnika, biznes, iqtisodiyot, axborot-texnologiyalar va umuman barcha sohalar jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Shunday ekan neologizmlar tobora barcha sohalarda ortib boraveradi, eskilari vaqt o'tishi bilan o'zlashma so'zlar tarkibiga qo'shib boraveradi. Biz neologizmlar ustida ish olib borar

¹²⁸Qurbonova, M., Abjalova, M., Axmedova, N., To'laboyeva, R. 2021. *O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning urg'uli lug'ati*, 2 jild. Toshkent.

ekanmiz hech qachon to'xtab qolmasligimiz lozim, chunki ular yangilanaveradi, yangilarini esa o'rganish, kuzatish va tahlil qilib borish lozim. Shu jihati bilan til ijtimoiy hodisa ekanligini namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'rayev.V.A. Insoniyatga globallashuv tahdidlari.//Jahon adabiyoti, 2003, noyabr.
2. Abjalova M., Geldiyeva, X.N. 2022. "O'zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan iqtisodiy va biznes sohadagi neologizmlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* (147-62.):
3. Hamidulla Dadaboyev. *O'zbek terminalogiyasi*. – Toshkent. 2019.
4. Qurbonova, M., Abjalova, M., Axmedova, N., To'laboyeva, R. *O'zbek tilidagi o'zlashma so'zlarning urg'uli lug'ati*, 2 jild. Toshkent, 2021.
5. Turobov A. M. Umumiy tilshunoslik // – Samarqand, 2020.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar?wprov=sfla1>